

**MALAY MAQOLLARIDA QO'LLANILADIGAN DURIAN MEVASINING
KONSEPTUAL TAHLILI****Akramova Sarvinoz**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Lingvistika malay tili 1-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18789894>

Annotatsiya. Mazkur maqolada malay xalq maqollarida ko'p uchraydigan durian mevasining lingvokognitiv va konseptual xususiyatlari tahlil qilinadi. Durian konsepti malay xalq dunyoqarashida faqat meva nomi sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar, qarama-qarshilik va egalik bilan bog'liq murakkab konseptual model sifatida xizmat qilishi ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida durian bilan bog'liq maqollar semantik, metaforik va konseptual jihatdan tahlil qilinadi va ularning kognitiv asoslari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: durian mevasi, malay maqollari, lingvokognitiv tahlil, konseptual metafora, dunyoqarash, semantik yadrosi, madaniy obraz.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвокогнитивные и концептуальные особенности плода дуриана, часто встречающегося в малайских народных пословицах. Раскрывается, что концепт дуриана в мировоззрении малайского народа выступает не только как название фрукта, но и как сложная концептуальная модель, связанная с социальными отношениями, нравственными ценностями, противопоставлением и принадлежностью. В ходе исследования пословицы, связанные с дурианом, анализируются в семантическом, метафорическом и концептуальном аспектах, а также выявляются их когнитивные основы.

Ключевые слова: плод дуриана, малайские пословицы, лингвокогнитивный анализ, концептуальная метафора, мировоззрение, семантическое ядро, культурный образ.

Abstract. The research article analyzes the linguocognitive and conceptual features of the durian fruit, which frequently appears in Malay proverbs. It reveals that the concept of durian in the worldview of the Malay people functions not only as the name of a fruit, but also as a complex conceptual model associated with social relations, moral values, opposition, and ownership. In the course of the study, proverbs related to durian are examined from semantic, metaphorical, and conceptual perspectives, and their cognitive foundations are identified.

Keywords: durian fruit, Malay proverbs, linguocognitive analysis, conceptual metaphor, worldview, semantic core, cultural image.

KIRISH

Hozirgi kunda zamonaviy tilshunoslikda lingvokognitiv yondashuv til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etishda muhim metodologik asosga aylandi shu sababli ushbu yo'nalishda konsept tushunchasi asosiy vazifani bajaradi. Konsept til birliklari orqali ifodalanadigan, xalqning dunyoqarashini, ularning milliy tafakkurini aks ettiruvchi kognitiv modeldir.

Xalq maqollari biror bir millatning madaniy tajribasi, axloqiy qarashlari, turmush tarzi va hayotini baholash mezonlarini mujassamlashtirgan ixcham, ammo mazmunan boy birliklar sifatida konseptlarni tadqiq etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Malay xalqining lingvistik va madaniy tafakkurida durian mevasi o'ziga xos ramziy mazmunga ega. Bu meva nafaqat kundalik hayotda iste'mol qilinadigan meva, balki xalq dunyoqarashida ko'ra qarama-qarshi xususiyatlarni birlashtiruvchi obraz sifatida shakllangan.

Shu bois, durian konseptining malay maqollardagi ifodasi xalqning ongi, madaniy tizimi va tafakkur dunyosi haqida ham ma'lumot beradi. Malay xalqining madaniy va lingvistik jihatdan qarashlari ularning xalq maqollarida yaqqol namoyon bo'lib kundalik hayot tarzida muhim o'rin tutadi.

Har bir millat maqollarida xalqning hayotiy tajribasi, qadriyatlari va ijtimoiy qarashlari mujassam bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, malay maqollarida uchraydigan durian mevasining konseptual tahlili malay xalq tafakkurini chuqurroq anglash imkonini beradi. Durian mevasi Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida keng tarqalgan va malay madaniyatida ramziy ahamiyatga ega bo'lgan mevasidan biridir. Uning o'tkir hidi va shirin ta'mi o'rtasidagi qarama-qarshilik durian konseptining asosiy kognitiv belgilaridan biri sifatida maqollarda metaforik tarzda qo'llanilin keladi. Aynan shu qarama-qarshi xususiyat durian obrazining maqollarda ko'p qo'llanilishiga sabab bo'lgan. Malay maqollarida durian ko'pincha tashqi ko'rinish va ichki dunyo, qiyinchilik va foyda, xavf va mukofot kabi oppozitsiyalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu esa durian konseptini lingvokognitiv jihatdan tahlil qilish malay xalqining baholash tizimi va mental modeli haqida muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Mazkur maqolaning asosiy dolzarbligi shundaki, hozirgi kungacha malay maqollarida durian mevasi ko'proq etnografik yoki leksik jihatdan tilga olingan bo'lsa-da, uning konseptual va kognitiv xususiyatlari tizimli ravishda yetarlicha yoritilmagan. Shuning uchun durian konseptining lingvokognitiv jihatdan tahlil qilish mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolaning maqsadi malay maqollarida qo'llaniladigan durian mevasining konseptual modelini aniqlash va uning semantik yadrosi hamda metaforik tarmoqlarini lingvokognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilishdan iboratdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan maqsadlarga erishish uchun durian bilan bog'liq maqollar semantik, metaforik va konseptual jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda lingvokognitiv tahlil, semantik tahlil va madaniy interpretatsiya metodlaridan foydalanildi va olingan natijalar malay xalqining milliy tafakkurini, ijtimoiy qarashlarini hamda hayotiy falsafasini durian konsepti orqali yoritishga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda durian konsepti malay xalq tafakkurining ko'p qatlamli kognitiv modeli sifatida talqin qilinib, uning qarama-qarshilik, tanlov va natija bilan bog'liq semantik xususiyatlari tizimli tarzda, misollar va tahlillar bilan ochib berildi. Tadqiqot natijalari malay maqollarini konseptual tahlil qilish bo'yicha keyingi izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

MUHOKAMA

Malay maqollarida durian konseptining semantik qobig'i asosan *qarama-qarshilik*, tanlov, boylik, katta ulush va natija kabi tushunchalari bilan bog'liq. Masalan, durianning tashqi ko'rinishi qo'pol va tikanli bo'lsa-da, uning ichki qismi ya'ni mag'zi shirin va yoqimlidir. Ushbu xususiyat maqollarda insonning tashqi ko'rinishi va ichki dunyosi o'rtasidagi farqni ifodalash uchun qo'llaniladi. Durian konsepti ko'pincha ijobiy va salbiy baholashning bir vaqtning o'zida sodir bo'lishini ko'rsatadi. Bu holat malay xalq tafakkurida murakkab hodisalarni soddalashtirib, konseptual model orqali ifodalash an'anasini ko'rsatadi. Durian bilan bog'liq maqollarda metafora asosiy lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, ***durianning hidi*** — xavf, sinov yoki jamiyat bosimi bilan qiyoslash bo'lsa, uning ta'mi esa uzoq muddatli mashaqqatdan keyingi mukofot yoki sabr-toqat va irodani anglatadi. Bu metaforik tarmoq orqali durian konsepti ***“azobdan keyin rohat”***, ***“xavfdan keyin foyda”*** kabi umumiy kognitiv yo'nalishda qo'llaniladi.

Natijada durian obrazi inson hayotidagi murakkab tanlovlarni ifodalovchi ramziy vositaga aylanib o'zbek xalq maqollaridan "ko'p kutganni mevasi shirin bo'ladi" degan ma'noga ham to'g'ri keladi.

Misollar:

Kalau mahu makan durian, sanggupkah menahan bau

Tarjima va lug'aviy ma'no: Durian yeyish uchun uning hidiga chidash zarur

Obraz: Durian: foyda va maqsad; hid: qiyinchilik va sinov.

Konseptual metafora: FOYDA - SINOV ORQALI ERISHILADI (har qanday qiyinchilikka chidagan odamgina foydaga erishadi)

Madaniy ta'rif: Durian malaylar uchun tanish meva bo'lib, uning hidi va ta'mi qarama-qarshi.

Durian runtuh di tengah jalan

Tarjima va lug'aviy ma'no: Yo'l o'rtasidagi pishgan durian.

Obraz: Durian — foyda; yiqilib tushish — kutilmaganlik.

Konseptual metafora: OMAD — TASODIFIY FOYDA. (ba'zi muvaffaqiyatlar kutilmaganda keladi)

Madaniy ta'rif: Malay xalqi orasida daraxtdan o'zi tushgan durian bepul ne'mat hisoblanadi.

Tak kenal durian bau pun dibenci

Tarjima va lug'aviy ma'no: Durianni qanday meva ekanligini bilmasdan uning hidini yoqtirmaslik.

Obraz: Durian — noma'lum narsa; hid — noto'g'ri baho.

Konseptual metafora: BILMASLIK — ADOLATSIZ BAHO. (bilmasdan turib hukm chiqarish)

Madaniy ta'rif: Malayziyada ko'p kuzatiladigan holatlardan biri bu mahalliy xalqning va sayyohlarning ham durian mevasini hidiga qarab noto'g'ri baholanishi berilishi ko'p kuzatiladi. Garchi hidi shirin bo'lmasa ham ta'mi juda mazzali.

Kerana durian tanggan berduri

Tarjima va lug'aviy ma'no: Durian mevasi sabab qo'lga tikan kiradi.

Obraz: Durian — maqsad; tikan — zarar.

Konseptual metafora: HAR BIR MAQSAD — XAVFVA TO'SIQLARDAN IBORATDIR. (har qanday foyda ham xavf tug'dirishi mumkin)

Madaniy ta'rif: Durian mevasining ustki qismi tikanli bo'lgani uchun uni ushlaganda e'tiborli bo'lishi kerak bo'ladi.

Durian masak gugur sendiri

Tarjima va lug'aviy ma'no: Pishgan durian o'zi tushadi.

Obraz: Durian — natija; pishish — vaqt.

Konseptual metafora: VAQT — NATIJANI BELGILAYDI. (shoshilmaslik va sabr, o'z mukofotini berishi yoritilgan ya'ni ko'p kutganning mevasi shirin bo'ladi)

Madaniy ta'rif: Durian shunday mevaki uni pishmasidan oldin daraxtdan uzib bo'lmaydi, xosil pishgandan keyin asta-sekin o'zi tusha boshlaydi.

Durian elok tapi kulitnya berduri

Tarjima va lug'aviy ma'no: Durian yaxshi, lekin po'sti tikanli

Obraz: Ichki mohiyat va tashqi ko'rinish.

Konseptual metafora: MOHIYAT - KO'RINISHDAN MUHIM. (Ko'p hollarda tashqi ko'rinish aldamchi bo'lishi mumkin)

Madaniy ta'rif: Durian mevasining tashqi ko'rinishigaxunuk va tikanli bo'lishiga qaramasdan aksariyat malay xalqi tomonidan sevib istemol qilinadi. Uning narxi boshqa mevalarga nisbatan qimmatligi va ta'mi shirinligi uning ahamiyatini yanada oshiradi.

Durian bilan bog'liq aksariyat maqollarda omad va tasodif tushunchalari ham muhim o'rin egallaydi. "*Durian runtuh di tengah jalan*" maqoli kutilmaganda, hech qanday mashaqqatsiz qo'lga kiritilgan foydani ifodalaydi. Biroq bunday maqollar malay xalqining dunyoqarashida inson bu hayotda faqatgina omadga tayanib yashash emas, balki hayotda ba'zan o'z ixtiyoridan tashqarida sodir bo'ladigan ijobiy hodisalar mavjudligini e'tirof etish sifatida ham turlicha talqin qilinadi. Ba'zi maqollarda esa durian konsepti ehtiyotkorlik va mas'uliyat tushunchalarini ham yoritadi. "*Kerana durian, tangan berduri*" maqolida har qanday foyda ortida biror bir xavf yoki zarar bo'lishi mumkinligi yoritilgan. Bunday maqollar orqali malay xalqining pragmatik dunyoqarashi, ya'ni har bir ishni qilishdan oldin uning oqibatini o'ylab bajarish zarurligi ifodalanadi. Umuman olganda, durian konsepti malay maqollarida ko'p funksiyali ramz sifatida namoyon bo'ladi. Durian nafaqat meva, balki hayotiy tajriba, axloqiy baho, ijtimoiy munosabatlar va falsafiy qarashlarni ifodalovchi kognitiv birlikdir. Bu esa durian konseptining malay tili maqollarida mustahkam o'rni mavjudligini ko'rsatadi.

NATIJALAR

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki malay maqollarida durian mevasining konsepti faqatgina oddiy leksik birlik emas, balki murakkab va ko'p qatlamli konseptual model sifatida shakllanganini ko'rsatdi. Lingvokognitiv tahlil jarayoni shuni ko'rsatadiki durian konsepti malay xalq tafakkurida muhim omil shuningdek turli talqin mexanizmlarini faollashtiruvchi ramziy birlik sifatida namoyon bo'ldi. Tadqiqot boshida, durian konseptining semantik yadrosi aniqlanib, uning asosan quyidagi asosiy tushunchalar yadrosida shakllanishi aniqlandi, bular: *qarama-qarshilik, tanlov, sabr, xavf va natija*. Durianning tashqi ko'rinishi ya'ni po'sti tikanli va yoqimsiz hidi bilan shirin tam va to'yimli qismi o'rtasidagi zidlik malay maqollarida tashqi ko'rinish va ichki mohiyat o'rtasidagi farqni ifodalovchi asosiy kognitiv belgi sifatida xizmat qiladi. Xususan, "*Durian elok, kulitnya berduri*" kabi maqollar orqali inson yoki biror bir hodisaning haqiqiy qiymati tashqi belgilar bilan emas, balki ichki mohiyati bilan belgilanadi degan konseptual xulosa shakllanadi.

Bu holat malay xalq tafakkurida axloqiy baholashning muhim mezoni sifatida namoyon bo'ladi. Yuqorida tahlil qilingan maqollar durian konseptining tanlov va tavakkal bilan uzviy bog'liqligini ham tasdiqladi. "*Kalau hendak makan durian, sanggupkah menahan bau*" maqoli asosida foydaga erishish faqatgina qiyinchilik va sinovlarga bardosh berish orqali amalga oshishi mumkinligi tasvirlangan. Natijada FOYDA — SINOV ORQALI ERISHILADI kabi umumiy kognitiv sxema faol ishlatilishi isbotlandi. Shuningdek, durian konsepti omad va tasodif tushunchalarini ifodalashda ham faol qatnashadi. "*Durian runtuh di tengah jalan*" maqoli asosida kutilmagan va mehnatsiz qo'lga kiritilgan foyda konsepti aniqlanib, OMAD — TASODIFIY FOYDA metaforik modeli shakllangani belgilandi. Bu esa malay xalqi tafakkurida hayot faqat mehnat va mashaqqatdan iborat emas, balki tasodifiy ijobiy hodisalar ham mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, durian konsepti ehtiyotkorlik va mas'uliyat g'oyalari ham o'zida mujassamlashtiradi, bular: "*Kerana durian, tangan berduri*" maqoli orqali har bir foyda ortida muayyan xavf yoki zarar bo'lishi mumkinligi konseptual darajada yoritiladi.

Bu natija malay xalqining pragmatik va realistik dunyoqarashidan dalolat beradi.

Metaforik tahlil natijasida durian konsepti doirasida bir nechta barqaror konseptual metaforalar aniqlanib, bular: MOHIYAT — KO'RINISHDAN MUHIM, FOYDA — QIYINCHILIK ORQALI, NATIJA — VAQT MAHSULI, OMAD — TASODIFIY FOYDA.

Ushbu metaforalar durian obrazining kognitiv tarmog'ini tashkil etadi. Umumiy natija sifatida aytish mumkinki, durian konsepti malay maqollarida inson hayotidagi murakkab qarorlar, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy tanlovlarni ifodalovchi ko'p ma'noli ramzga ega tushunchaga aylangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, malay maqollarida qo'llaniladigan durian mevasining konseptual tahlili ushbu obrazning chuqur lingvokognitiv va madaniy mazmunga ega ekanini ko'rsatdi. Durian konsepti malay xalqining dunyoqarashida qarama-qarshilik, tanlov, sabr, ehtiyotkorlik va natija kabi asosiy hayotiy tushunchalarni mujassamlashtirib keladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, durian bilan bog'liq maqollar orqali malay xalqining baholash tizimi, axloqiy mezonlari va ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati yorqin ifodalanadi. Tashqi ko'rinish va ichki mohiyat o'rtasidagi farq, mehnat va mukofot, xavf va foyda kabi oppozitsiyalar durian konsepti orqali aniq va ta'sirchan tarzda kundalik hayotda maqollar orqali yetkaziladi. Shuningdek, ushbu maqollar malay xalqining pragmatik va realistik dunyoqarashini aks ettiradi, ya'ni, har bir foyda muayyan qiyinchilik yoki xavf bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ammo sabr va to'g'ri tanlov oxir-oqibat yaxshi natijaga olib keladi. Bu jihat durian konseptini universallik darajasini yaqqol ko'rsatadi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, durian konsepti malay maqollarida milliy madaniyat, tafakkur va til o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yoritishda muhim manba hisoblanib, meva yoki tabiat obrazlari asosida qiyosiy-konseptual tahlil qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

REFERENCES

1. Khairul Adilah, S. M. B. & Marlina Jamal. Feline Characteristics in English and Malay Feline Proverbs: A Conceptual Metaphor Approach. Journal of Creative Practices in Language Learning and Teaching, Vol. 9, No. 1. Universiti Teknologi MARA (UiTM), Malaysia, 2024.
2. Jalaluddin, Nor Hashimah & Asad Mohamed. An Abstraction of Concrete Object in Malay Proverbs: An Inquisitive Semantic Analysis. Jurnal Bahasa, Vol. 18, No. 2. Institut Alam dan Tamadun Melayu, Universiti Kebangsaan Malaysia, Bangi, 2018.
3. Bakar, Shamsudin Abu, Muhamad Yusni Mohd Junos & Abdul Rani Hassan. The Manifestation of the Malay Intellectual Mind and Thinking in the Malay Proverbs. Proceedings of the International Conference on Language and Literature (IC2LC). Universiti Muhammadiyah Sumatera Utara, Medan, 2025.
4. Khadiz, A. V., Fitria Ayuningtyas, Muzykant, V. L. & Munadhil A. Muqsith. Malay Proverb Semantic Values: A Paremiological Approach to the Communication Process. RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics, Vol. 16, No.
5. Lakoff, George & Johnson, Mark. Metaphors We Live By. University of Chicago Press, Chicago, 2019.
6. Kovecses, Zoltan. Where Metaphors Come From: Reconsidering Context in Metaphor. Oxford University Press, Oxford, 2020.